Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Bahrom Abduhalimov Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi tashkil etilganining 80 yilligi Faxriy medali bilan taqdirlandi

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Bahrom Abduhalimov O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi ilmiy aloqalarni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi tashkil etilganining 80 yilligi Faxriy medali bilan taqdirlandi.

Esdalik nishoni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti Shavkat Ayupov tomonidan tantanali ravishda topshirildi.

Mazkur e’tirof ikki davlat o‘rtasidagi ilmiy hamkorlik yanada mustahkamlanayotganining yaqqol ifodasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Bahrom Abduhalimovni ushbu yuksak mukofot bilan samimiy tabriklaymiz va ularga kelgusidagi ilmiy izlanishlarida muvaffaqiyatlar hamda yangi zafarlar tilaymiz!